



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BAHOLASHDA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI

Kudaybergenova Guzal

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-8788-8747

guzalkudaybergenova2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarida risklarni baholashda kreditlash amaliyotining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda kredit portfeli sifati, muammoli kreditlar (NPL) darajasi hamda kredit riskini baholashda qo'llanilayotgan skoring va monitoring mexanizmlarining samaradorligi o'rganilgan. Natijada kreditlash jarayonida risklarni aniqlash va boshqarish tizimini takomillashtirish, muammoli kreditlar ulushini kamaytirish hamda banklar moliyaviy barqarorligini oshirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kreditlash amaliyoti, kredit riski, muammoli kreditlar (NPL), kredit portfeli, risklarni baholash, skoring tizimi, moliyaviy barqarorlik.

АНАЛИЗ КРЕДИТНОЙ ПРАКТИКИ В ОЦЕНКЕ РИСКОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА

Кудайбергенова Гузал

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются особенности кредитной практики при оценке рисков в коммерческих банках Узбекистана. В исследовании рассмотрены качество кредитного портфеля, уровень проблемных кредитов (NPL), а также эффективность скоринговых и мониторинговых механизмов, применяемых при оценке кредитного риска. Обоснована необходимость совершенствования системы оценки и управления рисками в процессе кредитования, снижения доли проблемных кредитов и укрепления финансовой устойчивости банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитная практика, кредитный риск, проблемные кредиты (NPL), кредитный портфель, оценка рисков, скоринговая система, финансовая устойчивость.

ANALYSIS OF LENDING PRACTICES IN RISK ASSESSMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN

Kudaybergenova Guzal

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the features of lending practices in assessing risks in commercial banks of Uzbekistan. The study examines the quality of the loan portfolio, the level of non-performing loans (NPLs), and the effectiveness of scoring and monitoring mechanisms used in credit risk assessment. The findings substantiate the need to improve risk assessment and management systems in lending processes, reduce the share of NPLs, and strengthen the financial stability of banks.

Keywords: commercial banks, lending practices, credit risk, non-performing loans (NPLs), loan portfolio, risk assessment, scoring system, financial stability.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, moliyaviy liberallashtirish jarayonlari hamda kreditlash hajmining izchil oshib borishi tijorat banklarida risklarni samarali baholash masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa, kredit portfeli tarkibining kengayishi va diversifikatsiyasi sharoitida kredit riskini aniqlash, baholash hamda boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi muammoli kreditlar (NPL) ulushining ortishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kreditlash jarayonida risklarni baholashda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, scoring modellari va ichki reyting tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq amaliyotda qarz oluvchilarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilmaslik, axborot asimmetriyasi, kredit monitoringi tizimining sustligi hamda makroiqtisodiy omillar ta'siri risklarni baholash samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tijorat banklarida kreditlash amaliyoti asosida risklarni baholash tizimini kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklarida kredit riskini baholash amaliyotini tahlil qilish hamda muammoli kreditlar darajasini kamaytirishga qaratilgan samarali yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyot sharhi.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, transformatsiya jarayonlari sharoitida ushbu masala yanada dolzarblik kasb etmoqda. Joseph Stiglitz (2010) kredit bozorlari rivojida axborot assimetriyasining davom etishi kredit risklarining oshishiga sabab bo'lishini ta'kidlab, transformatsiya davrida institutsional islohotlar, shaffoflik va monitoring mexanizmlarining takomillashuvi bank tizimi samaradorligi uchun muhim omil ekanini ilmiy asoslagan.

Frederic Mishkin (2019) moliyaviy vositachilar faoliyatidagi modernizatsiya jarayonlari kredit risklarini kamaytirish, aktivlar sifatini yaxshilash va kapitallashtirishni oshirish orqali bank tizimi barqarorligini mustahkamlashini ko'rsatib, kreditlash amaliyotining transformatsiyasi banklarning makroiqtisodiy muvozanatga ta'sirini yoritadi.

Allen va Gale (2007) kredit bozorlarining barqarorligini banklararo likvidlikni boshqarish, risklarni taqsimlash va moliyaviy tizimda raqobatni shakllantirish orqali ta'minlash zarurligini ta'kidlab, transformatsiya davrida kreditlash mexanizmlarining qayta ko'rib chiqilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Makroiqtisodiy yondashuv nuqtayi nazaridan, Olivier Blanchard (2022) kredit hajmlarining iqtisodiy sikllarga mos boshqarilishi iqtisodiy o'sishning uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib, transformatsiya jarayonida kredit resurslarining oqilona taqsimlanishi samaradorlikni oshirishni ta'minlashini ta'kidlaydi.

Mazkur ilmiy yondashuvlar tijorat banklari kreditlash amaliyotining transformatsiyalashuv jarayonida takomillashuvi iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omili ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.


Tijorat banklarining kredit portfeli hajmi, tuzilishi, kredit risklari, qaytmaslik darajasi va kapitallashtirish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar rasmiy statistik ma'lumotlar asosida qayta ishlanib, dinamik tahlil amalga oshiriladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishi, ularning kredit-investitsiya salohiyatini kengaytirish hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kredit amaliyotining samaradorligi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda bank tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari kredit portfeli sifati, kredit siyosatining shaffofligi va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarining takomillashuviga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu omillar tijorat banklarining strategik rivojlanish dasturlarini izchil amalga oshirish, real sektorning yirik investitsion loyihalarini moliyalashtirish hamda aholiga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar turini va sifatini oshirishda muhim determinant sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kredit tizimining samarali faoliyati, avvalo, kredit ajratish jarayonining ilmiy asoslangan tarzda tashkil etilishi, ta'minot obyektlarining ishonchli va aniq baholanishi, kredit monitoringi jarayonlarining uzluksiz va sifatli olib borilishi hamda kredit resurslari bilan bog'liq risklarning minimallashtirilishiga bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan, kredit amaliyotida ilg'or boshqaruv yondashuvlari, risklarni baholashning zamonaviy metodlari va monitoringning raqamlashtirilgan tizimlarini joriy etish banklar faoliyatining samaradorligini oshirishda ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Transformatsiya jarayonida kreditlar bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar ko'plab omillar bilan shartlangan bo'lib, ular avvalo kredit siyosati mezonlarining yetarli darajada aniq va standartlashtirilmaganligi, kredit olish mexanizmlarining murakkabligi hamda kredit oluvchilarni baholashda zamonaviy scoring tizimlari va risk-modellashtirish usullarining yetarli darajada qo'llanilmasligi bilan izohlanadi. Shuningdek, kredit ta'minoti qiymatini aniqlash jarayonlarida mavjud noaniqliklar, baholash amaliyotining bir xillashmaganligi hamda kredit monitoringi tizimlarining to'liq raqamlashtirilmaganligi ushbu jarayonning samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish kredit amaliyotining sifatini oshirish, problemlar kreditlar ulushini kamaytirish va tijorat banklarining investitsion salohiyatini mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. "Hamkorbank" kredit portfeli va muammoli kreditlari dinamikasi


Manba: "Hamkorbank" AJ rasmiy statistik ma'lumotlari, 2021-2025.

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2025-yillar davomida Hamkorbankning kredit portfeli barqaror o'sib borgan bo'lib, ushbu davrda kreditlar hajmi sezilarli kengaygani

kuzatiladi. 2021-yilda bankning umumiy kredit portfeli 6,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 14,2 trln so'mga yetgan. Bu besh yil ichida kreditlar hajmi qariyb ikki baravar oshganini anglatadi. Yillik o'sish sur'atlari biroz farqlansa-da, umumiy trend kreditlash faoliyatining izchil kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Muammoli kreditlar (NPL) hajmi ham yillar davomida asta-sekin o'sib borgan. 2021-yilda 357,6 mlrd so'm bo'lgan muammoli kreditlar 2025-yilga kelib 710,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich ham ikki baravar atrofida oshgan bo'lsa-da, umumiy kredit portfeli o'sish sur'atiga nisbatan muammoli kreditlar nisbiy ulushining barqarorligini ko'rish mumkin.

Eng muhim jihat shundaki, kredit portfeli keskin o'sganiga qaramay, NPL darajasi umumiy portfelga nisbatan 5% atrofida barqaror saqlanib qolgan. Bu bankning risk-menejment tizimi samarali ishlayotganini, kreditlash kengaygan davrlarda ham qarzdorlik sifatining nazoratsiz yomonlashmaganini ko'rsatadi. 2023-2024-yillarda muammoli kreditlar ulushi hatto biroz pasaygan, bu esa kredit sifatining yaxshilangani yoki monitoring jarayonlarining kuchayganidan dalolat beradi. Faqat 2025-yilda bu ulush biroz o'sgan bo'lsa-da, o'zgarish sezilarli emas.



2-rasm. ATB "Turonbank" muammoli kreditlari va aktivlardagi ulushi dinamikasi foizda

Manba: "Hamkorbank" AJ rasmiy statistik ma'lumotlari, 2021-2025.

2-rasm ma'lumotlariga ko'ra, ATB "Turonbank" da 2021-2025-yillar davomida muammoli kreditlar (NPL) ulushi va aktivlarning tarkibidagi ulushi dinamikasida muayyan o'zgarishlar kuzatiladi. Birinchidan, muammoli kreditlar ulushi tahlil qilinadigan bo'lsa, 2021-yilda 5,2% darajada bo'lgan ko'rsatkich 2022-yilda 5,1% ga, 2023-yilda 5,0% ga pasaygan. 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 4,9% gacha kamayib, eng past darajaga yetgan bo'lsa, 2025-yilda yana biroz oshib 5,0% ni tashkil etgan. Ushbu holat bankda kredit portfeli sifati umumiy tendensiyada yaxshilanganini, biroq so'nggi davrda risklar yana biroz faollashganini ko'rsatadi. Ikkinchidan, aktivlarning umumiy hajmidagi ulushi yuqori va barqaror darajada shakllangan. 2021-yilda 79,0% bo'lgan ko'rsatkich 2022-yilda 80,3% ga, 2023-yilda 81,5% gacha oshgan. 2024-2025-yillarda esa mos ravishda 80,7% va 80,8% darajasida shakllanib, nisbatan barqaror trendni namoyon etgan. Bu bank aktivlarining asosiy qismi kredit operatsiyalariga yo'naltirilganini va daromad keltiruvchi aktivlar ulushi yuqoriligini bildiradi.

Xulosa va takliflar.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, kreditlash jarayonidagi asosiy muammolar kredit siyosati mezonlarining aniq belgilanmaganligi, kredit olish mexanizmlarining murakkabligi, scoring va risk-modellashtirish tizimlarining yetarli qo'llanilmasligi, ta'minot bahosidagi noaniqliklar hamda monitoring jarayonlarining to'liq raqamlashtirilmaganligidan iborat. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun kredit baholash standartlarini takomillashtirish, risklarni modellashtirishning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, kredit monitoringini to'liq raqamlashtirish hamda kredit siyosatining shaffofligini oshirish zarur.

Tijorat banklari kreditlash amaliyotining transformatsiyasini chuqurlashtirish nafaqat kredit portfeli sifatini yaxshilash, balki iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish samaradorligini oshirish, problemli kreditlarni kamaytirish va banklarning investitsion salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, kreditlash amaliyotini modernizatsiya qilish O'zbekiston bank tizimining ustuvor strategik vazifalaridan biri sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Adabiyotlar / *Литература* / Reference:

"Hamkorbank" AJ rasmiy statistik ma'lumotlari, 2021-2025.

Allen, F., & Gale, D. (2007). *Understanding Financial Crises*. Oxford University Press.

Blanchard, O. (2022). *Macroeconomics*. Pearson.

Mishkin, F. S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson Education.

Stiglitz, J. E. (2010). *Credit markets, information asymmetry and institutional reforms*. Oxford University Press.